

## “QALB, GUNOH VA QAYTISH: “MOMAQALDIROQ OSTIDA SAYR” ROMANIGA NAZAR”

**Anzirat ABDIKARIMOVA**

*O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti*

[anziratabdikarimova@gmail.com](mailto:anziratabdikarimova@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677277>

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Erkin A‘zamning “Momaqaldiraq ostida sayr” romanining o‘ziga xos jihatlari, yozuvchining obraz yaratish mahorati xususida fikr yuritiladi, shuningdek asar qahramonlarining tabiati, taqdir yo‘li ijtimoiy-psixologik usulda tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *badiiy ijod, qahramon, markaziy obraz, personaj, kinoya, qaytish, dialog.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматриваются уникальные аспекты романа Эркина Азама «Путешествие под грозой», мастерство писателя в создании образов, а также анализируется природа персонажей произведения и их судьба с использованием социально-психологического метода.*

**Ключевые слова:** *художественная литература, герой, центральный образ, персонаж, ирония, возвращение, диалог.*

**Abstract.** *This article discusses the peculiarities of Erkin A‘zam’s novel “A Walk Under Thunder”, the writer’s skill of creating an image, as well as analyzes the nature of the characters of the work, the path of fate in a socio-psychological way.*

**Keywords:** *Artistic creation, hero, central image, personage, cinema, return, dialogue.*

O‘zbek adabiyotida serqirra ijodi, ironiyaga boy asarlari bilan tanilgan Erkin Azam bugungi kun kitobxonlari uchun davr fojiasini to‘la ochib bera olgan bir qator asarlar yaratdi. Yozuvchining asarlari badiiyati, samimiylik bilan sug‘orilgan o‘ziga xos uslubi bilan alohida ahamiyatga ega. “Hayotni, odamlar ruhiyatini, poetik tafakkur tabiati va, ayniqsa, san‘at qonuniyatlarini bilmay turib, insoniyat uchun zarur, foydali, umrboqiy asarlar yaratib bo‘lmaydi” [1;5]. Erkin A‘zam shu qonuniyatlarni to‘la anglay oladigan, shuningdek, inson ruhiyatining turli tovlanishlarini payqaydigan qalami o‘tkir, nazari yuksak qalamkash hisoblanadi. Atoqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul: “Badiiy ijodda so‘zning go‘zali – dehqonday oddiysi, tabiiysi, dard bilan topishgani. Ma’no agar toza bo‘lmasa, chuqurlik kasb etmasa, samimiyatga ishontirolmasa, so‘z jarangi-yu tuyg‘u jilvasi yoqimsizdan yoqimsizdir”[2;19], deydi. Erkin A‘zam ham badiiy ijodda so‘zning eng tabiiysini, qalbgga yaqinini tanlaydigan ijodkorlardan biridir. Uning aksar asarlari yuksak badiiy saviyada yozilgan, shuningdek u yaratgan qahramonlar o‘z davrining bor go‘zallig-u nafosatini, razolat-u illatlarini ochiq-oydin ko‘rsatib beradi.

‘‘Momaqalldiroq ostida sayr’’ romani shunday asarlardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Roman xotimadan boshlanib uch markaziy qahramonning jonajon qishlog‘iga qaytishi va kutilmagan falokat bilan yuzlashishi (sel qishloqqa kirish yo‘lini, ko‘prikni olib ketgan edi) bilan boshlanadi. Qahramonlarning qaytishi bejiz emas, hayotining eng samimiy, toza, beg‘ubor davrlari o‘tgan bu manzil ularga qadrdon, chirkinlik-u razolatga to‘la dunyodan go‘yoki bir boshpana. Romanda yoshlikning betinim orzu-havaslariga intilgan shu yo‘lda dunyoning gunoh-u razolatlar to‘la to‘riga ilingan obrazlarning turli nuqtalarda kesishgan hayot yo‘li hikoya qilinadi. Iskandar obrazi kitobxonni biroz mushohadaga chorlaydi. Uning o‘zligidan yiroqlashuviga, bunday chigal taqdir yo‘llarida qolishga nima sabab bo‘ldi? Balki, birgina ‘‘Maryam bevaning yetimchasi’’ deb aytilgan doimiy kesatliqlar uning kemtik qalbini toshga aylantirgandir, insoniylikdan uzoqlashuviga yo‘l ochib bergandir. U fitrati, tiynati sof bir bola edi va hamma bolalardek uning ham beg‘ubor orzulari bor edi. Badbaxt oqsoch xotining birgina luqma gapi: ‘‘Bu nozaninga ko‘z solmoqni senga kim qo‘yibdi? O‘zing Xudo urgan bir yetimcha bo‘lsang! Bunday nafis gulg‘unchaga suqlanmoqqa sening haqqing yo‘q! U sen juldirvoqiga emas, bizning arzanda Shurikjonimizga tan, Shurikjonimizga munosib!’’ Asarda roviy tilidan Iskandarning holati quyidagicha izohlanadi: ‘‘O‘sha kun, o‘sha soatda shusiz ham o‘ksik ko‘ngil sindi, ko‘ngil ne, o‘ziga yarasha orzular bilan yashayotgan bolalik dunyosi vayron bo‘ldi. Endi uylansa, keyingi umr ana shuni chegalash, yamash, qaytadan tiklash tashvishi bilan o‘tibdi. Singan narsa barbir mo‘rt, omonat bo‘lar ekan’’ [3;22]. Iskandar hayotidagi burilish nuqtasi shu o‘rindan boshlanadi, u endi jabrlanuvchi emas, jabr beruvchi rolga kirishadi. Shu o‘rinda mushtipar onasi Maryam bevaning Nekbibi yetim qiz haqidagi ertakidan yozuvchi mohirona foydalangan. Iskandar Nekbibiga (yovuz o‘gay ona qo‘lida qolgan qizning jabr-u jafolari haqidagi ertak) chin dildan achingan, chunki taqdiridagi yaqinlik uni ertak qahramoni bilan darddosh etgan: ‘‘Kechalari opa-uka piq-piq yig‘lab oladi... Ta’sirlanib ketganidan goho o‘zini o‘sha sho‘rtumshuq qiz o‘rnida deb xayol qiladi.’’ Shu lahzadan qahramon o‘z maslagini, hayot yo‘lini tubdan o‘zgartiradi. U endi, notovon yigitchadan kerak bo‘lsa, boshqalarning qismatigani o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan hayot xo‘jayiniga aylanadi: ‘‘Alvido, Noshud qiz Nekbibi, Yashang, Tarasha xola, Rahmat sizga!’’ [4;26].

Adib birgina gap insoning butun hayotini, o‘zligini, dunyosini butunlay o‘zgartirib yoki yo‘qotib yuborishi mumkinligini ushbu obraz orqali ko‘rsatib beradi. Iskandar butun hayoti davomida gunohlar botqog‘iga botib, vijdonini sotib yashadi, lekin asar oxirida Iskandarning ma’naviy qiyofasida bir qancha o‘zgarishni kuzatish mumkin. Bu holat Jiyydaliga xudoyi qilish uchun qaytganda va G‘ayrat bilan

suhbatlashish asnosida sodir bo‘ladi. Uning vijdoni qayta uyg‘onadi, gunohlardan bulg‘angan ko‘ngil ortga qaytishga yo‘l qidiradi, ammo endi kech edi. Muallif ushbu jarayonda dialoglardan unumli foydalanib, qahramonlarning qalb kechinmalarini yorqin bo‘yoqlarda aks ettiradi.

Samimiylik va soddadillik qalbiga muhrlangan markaziy obrazlardan biri G‘ayrat Jiyadalining oldi yigitlaridan edi, ammo hayotning aldamchi o‘yinlari oldida doim ham o‘z yo‘lini topa olmadi. Adabiyotshunos olim Maqsud Asadov shunday ta‘rif beradi: “Bir chekkada nima qilarini bilmay, tomoshabin bo‘lib turgan jonsarak olomondan ayricha yashashga intiladi u! Ana shu – “tosh” lar yo‘lidan chiqib, tayg‘antirmaganida, ehtimol, qadami o‘ktam, manzili nurli bo‘larmidi uning! Shunga qaramay, ojizgina jussasida maromini topmagan qaysargina, ammo ju‘ratli nursiz bir jasorati bor! “Bir tutam” gina haqiqatni faqat o‘zigagina isbot qilishga uringan, o‘z qismatining metin yetovidan chiqishga chog‘i kelmagan beozor “mardlik”ning tirik, ammo jonsiz “soya” si u!” [5;6]. Haqiqatdan ham G‘ayrat o‘z haqiqati uchun kurashgan, ammo jamiyatning chigal yo‘llari aro goh adashib, goh to‘g‘rilik sari yuz burgan obraz. G‘ayratda ham Iskandarga o‘xshash alam bor, bu alamni Iskandar Oyravshandan olgan bo‘lsa, G‘ayrat To‘qsaboning qizi Sanamdan oldi. “...Ba‘zan biror nimadan ranjiganda G‘ayrat xotini Sanamga achchiq qilib, “O‘shanda kallam ishlamagan ekan, Sevarni tanlasam bo‘larkan, attang”, deb yuboradi. Bu ta‘na, bu pushaymonlikdan Sanamgina munglanib qoladi. Xo‘rligi keladi. Xo‘rlanadi. Xotin deganni xo‘rlamay bo‘larmi? Xotin zoti asli xo‘rlik bilan birga, xo‘rlanmoq uchun yaralmaganmikan o‘zi?”. Yozuvchi kinoyaviy tasdiq orqali o‘qirmanni mushohada qilishga, Allohning erkakka omonati bo‘lgan ayol zotiga zulm qilish, tahqirlash insonning ma‘naviy olamining tubanlashuvi belgisi ekanligi haqida o‘ylashga undaydi

Yuqoridagi ikkala obrazni bir nuqtada kesishtiruvchi bosh qahramon Oyravshan romanda alohida ahamiyat kasb etadi. U chin muhabbat, chin insoniy ezgu munosabatlardan holi hirs-u nafsning “o‘yin”lari qurboniga aylangan, hayotning shavqatsiz taloto‘plarda xato-yu gunohlar evaziga bo‘lsa-da yashay olgan, o‘zligiga qayta olgan ayol obrazidir. Oyravshan nafaqat shoira, balki orzu-maqsadlar ketidan quvadigan, dunyoga havas bilan boqadigan hayotsevar qiz edi. Asarda uning shoiraligi shunchaki “harakatlanish strategiyasi” sifatida keladi ya‘ni she‘r aytish maqtovgga, obro‘ga erishish yoki kimlargadir yoqish istagi uchun vosita bo‘lib keladi. Yozuvchi Oyravshanning mansab-u martaba uchun she‘r o‘qishni istehzo bilan tasvirlaydi, chunki haqiqiy shoir she‘riyatni vositaga aylantirmaydi, balki qalblarga muhabbat, go‘zallik ulashuvchi rishtaga aylantiradi. Muallifning personajlarga ism tanlashda ham bir muncha badiiy maqsad yotadi, ayniqsa Oyravshan ismi uning taqdiri bilan



parodoks bo‘lib keladi ya’ni hayoti oydinlikda, yorug‘likda kechmaydi. Jurnalda Oyravshanning “Oy rosvhan” deb ismining xato yozilishi, Jamolzodaning “Opa” shunday degan bo‘lsa, demak shunday degan javobi bepisandlik, ko‘r-ko‘ronalikning bir ko‘rinishi desak xato bo‘lmaydi. Oyravshan kechmish haqida juda ham qayg‘urib tushkinlikka tushmaydi, o‘zini ayblavermaydi, shunchaki hayot oqimi bo‘ylab harakatlandi. Uning saylovda nomzodni qo‘yishi, qatnashishi, shunchaki bir ermak uchun qilinganday tuyiladi, chunki bu shon-shuhratlar unga haqiqiy baxt va xotirjamlikni bermaydi, balki turli fitna-yu gunohlarga boshlaydi, shunga qaramasdan u o‘zligiga, vijdoniga qayta oldi. U Jiydaliga – o‘z ona yurtiga qaytishni niyat qilganida uning qalbida qayta uyg‘onish sodir bo‘ldi. Buni bosh qahramoning so‘nggi iqrori orqali izohlash mumkin: “Nega bunday ekan: tug‘ilgan, kindik qoni to‘kilgan joylar bir kun kelib odamzodga torlik qilib qoladi-ya?! Ayniqsa, yoshlikka – g‘o‘r, tiyiqsiz faslga xos bu mayl. Go‘yoki dunyoning bor quvonch-u bayramlari siz bormagan, siz ko‘rmagan manzillarda kechayotir-u, tang-u tor bir xilvatda yashab siz ulardan chunon benasib qolyapsiz! Yo‘q ketasiz, nelarningdir ilinjida bosh olib ketasiz. Rizqingiz sochilgan o‘zga manzillarni makon tutib, erta bir kun umringiz o‘sha joylarda o‘ta boshlaydi. Bu yer-chi, ik bor dunyoga ko‘z ochib ko‘rgan odamlaringiz, bolalikdan qadrdon dov-daraxt, dala-tuz, tog‘- u tosh... Begona, endi bari begona. Lekin shunday gap ham borki, odamzod o‘lganda tan-vujudi o‘sha tuproqqa qo‘yilgan joyida-yu ruhi esa asl paydo bo‘lgan manzillariga qaytar emish” [6;146]. Orzu-istaklar ortidan quvib hayotning turli sinovlarida toblangan qahramonlarning uyiga qaytishi shunchaki tug‘ilib o‘sgan yurtiga qaytish emas, balki ichki o‘zgarish va qayta poklanish natijasida asl ichki mohiyatiga yuzlanishdir. Qahramonlar endi avvalgidek emas, ular o‘z xatolari-yu gunohlaridan xulosa chiqargan, hayotga qarashi, munosabati o‘zgargan. Qaytish asarda chuqur ruhiy ehtiyoj natijasida sodir bo‘ladi, qahramonlar o‘zining asl mohiyatini anglab, yangicha ma’naviy qiyofa bilan qaytadi.

### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 364 b.
2. Erkin A‘zam. Momaqaldiraq ostida sayr. – T.: SAHHOF, 2025. – 288 b.
3. Maqsud Asadov. Nega “Momaqaldiraq ostida sayr” qilish kerak? <https://oyina.uz/uz/article/4518>
4. Zulayho Rahmonova. Ibrohim Haqqul haqiqati – T.: “Trust and support”. – 296 b.